

GLOBALLASHUV JARAYONIDA GIYOHVANDLIK VA ZAHARVANDLIKNING OLDINI OLISH – DOLZARB IJTIMOIIY-HUQUQIIY MUAMMO SIFATIDA



Tashpulatov Nodir Anvarovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Департамент координации специальных операций
Министерства внутренних дел
Республики Узбекистан,
главный специалист

Chief Specialist of the Special Operations Coordination
Department of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida giyohvandlik va zaharvandlikning jahon miqyosida tarqalish tendensiyalari, ularning aholi salomatligi, jamoat xavfsizligi hamda ijtimoiy barqarorlikka ko'rsatayotgan salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur illatlarning oldini olish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, zaharvandlik, psixoaktiv moddalar, globallashuv, profilaktika, yoshlar, jamoat xavfsizligi, narkologik yordam.

PREVENTION OF DRUG ADDICTION AND POISONING IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION – AS AN URGENT SOCIO-LEGAL PROBLEM

Abstract. This article analyzes the trends in the spread of drug addiction and toxic substance abuse in the context of globalization, as well as their negative impact on public health, public safety, and social stability. It also substantiates the need to strengthen preventive measures among the population, especially young people, to prevent these negative phenomena.

Keywords: drug addiction, substance abuse, psychoactive substances, globalization, prevention, youth, public safety, addiction treatment services.

Hozirgi globallashuv sharoitida giyohvandlik va zaharvandlik insoniyat oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy, tibbiy va demografik muammolardan biriga aylanib bormoqda. Psixoaktiv moddalarning noqonuniy aylanmasi transmilliy jinoyatchilikning yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat aholi salomatligiga, balki davlatlar xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda [1]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali giyohvandlik moddalari savdosining yangi shakllari paydo bo'lishi, xalqaro migratsiya va global transport-kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi mazkur muammoning yanada chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida giyohvandlik bilan bog'liq vaziyat tobora murakkablashib bormoqda. BM'Tning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan "World Drug Report 2025" hisobotiga ko'ra, dunyoda 316 million nafardan ortiq kishi giyohvandlik moddalarni iste'mol qiladi va bu 15–64 yoshdagi aholining taxminan 6 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich 2013-yildagi 5,2 foizlik darajaga nisbatan sezilarli o'sishni namoyon qilib,

so'nggi o'n yil ichida giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilar soni oshganligini ko'rsatadi. Hisobotda qayd etilishicha, giyohvandlikdan aziyat chekayotgan shaxslar soni 64 million nafarga yetgan bo'lib, ularning aksariyati zarur tibbiy va ijtimoiy yordamdan to'liq foydalana olmayapti [2]. Bu holat giyohvandlikning nafaqat sog'liqni saqlash sohasi, balki jamoat xavfsizligi, demografik barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ham jiddiy tahdidga aylanganligini ko'rsatadi [3].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik moddalari orasida kannabis eng keng tarqalgan tur hisoblanadi. Uni iste'mol qiluvchilar soni 244 million nafardan ortiq bo'lib, barcha giyohvandlik moddalari iste'molchilarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, taxminan 61 million nafar shaxs opioid moddalarni, millionlab insonlar esa amfetaminlar, kokain va sintetik psixostimulyatorlarni iste'mol qilmoqda [3]. Ayniqsa, sintetik giyohvandlik moddalarining nisbatan arzonligi va yashirin tarqatish imkoniyatlari ularning yoshlar o'rtasida tez sur'atlarda ommalashishiga olib kelmoqda.

Giyohvandlikning ijtimoiy xavfi uning inson salomatligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri bilan ham belgilanadi. Jahon bo'yicha 64 million nafarga yaqin shaxsda psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish natijasida ruhiy holat va xulq-atvor bilan bog'liq turli buzilishlar aniqlangan. Shu bilan birga, 13,2 million nafardan ziyod inson giyohvandlik moddalarini inyeksiya orqali qabul qilishi OITS (VICH) va virusli gepatit kasalliklarining tarqalish xavfi yuqori darajaga yetganini anglatadi [2]. Mutaxassislar baholashicha, inyeksion giyohvandlar orasida VICH infeksiyasiga chalinish ehtimoli umumiy aholiga nisbatan bir necha barobar yuqori hisoblanadi.

Globalashuv sharoitida zaharvandlik ham alohida xavfli ijtimoiy illat sifatida namoyon bo'lmoqda. Zaharvandlik bilan bog'liq holatlarda asosan retseptor dori vositalari, maishiy kimyoviy mahsulotlar va ingalyantlar suiiste'mol qilinadi. Mazkur vositalarning nisbatan arzonligi, erkin muomalada mavjudligi hamda ayrim hollarda huquqiy cheklovlarining kamligi ularning o'smirlar va yoshlar o'rtasida keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Xalqaro tadqiqotlar yoshlar giyohvandlikka dastlab aynan toksikomanik xususiyatga ega moddalarni iste'mol qilishdan boshlashini ko'rsatmoqda [4].

Muammoning yana bir tashvishli jihati davolash va rehabilitatsiya xizmatlarining yetarli darajada emasligi bilan bog'liq. Jahon statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, narkologik kasalliklarga chalingan har 11 nafar shaxsdan faqat bittasi maxsus tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega. Ayollar o'rtasida mazkur ko'rsatkich yanada past bo'lib, yordamga muhtoj bo'lgan har 18 nafar ayoldan faqat bittasi professional davolanish xizmatlaridan foydalanmoqda. Bu esa giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashishda profilaktika chora-tadbirlari bilan bir qatorda davolash va rehabilitatsiya tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar va tahlillar giyohvandlik hamda zaharvandlikning global miqyosda keng tarqalayotgan, jamiyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug'dirayotgan murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu bois mazkur muammo bugungi kunda nafaqat sog'liqni saqlash sohasining, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvi tizimining ham ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Mazkur holat giyohvandlikning zamonaviy ko'lami, uning ijtimoiy xavfilik darajasi hamda jamiyat hayotining turli sohalariga ko'rsatayotgan ta'sirini chuqur tahlil qilish zaruratini taqozo etadi.

Giyohvandlikning zamonaviy ko'lami va ijtimoiy xavfilik darajasini tadqiq etish natijalari ushbu salbiy ijtimoiy hodisaning kriminogen vaziyatga, aholi salomatligi va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini baholash, shuningdek uning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Giyohvandlik zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soluvchi transmilliy ijtimoiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Uning xavfliligi nafaqat inson salomatligiga zarar yetkazishi, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ham izohlanadi. Giyohvandlik natijasida aholi orasida mehnat qobiliyatining pasayishi, oilaviy munosabatlarning buzilishi, ijtimoiy deviantlikning kuchayishi hamda turli huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishi uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Xalqaro tadqiqotlar giyohvandlik va jinoyatchilik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Giyohvandlik moddalarini muntazam iste'mol qiluvchi shaxslarda ijtimoiy nazoratning susayishi, xulq-atvorning o'zgarishi va huquqiy ongning pasayishi kuzatiladi. Natijada o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, oilaviy zo'ravonlik va boshqa huquqbuzarliklarning sodir etilish ehtimoli ortib boradi. Shu bilan birga, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasi uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya va transmilliy jinoiy tarmoqlarning moliyaviy manbai sifatida namoyon bo'ladi [5].

Giyohvandlikning ijtimoiy xavfi uning demografik jarayonlarga ko'rsatayotgan ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mehnatga layoqatli aholi qatlami va yoshlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalishi inson kapitali sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixoaktiv moddalarni uzoq muddat iste'mol qilish natijasida shaxsning intellektual salohiyati, mehnat unumdorligi va ijtimoiy faolligi pasayadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Muammoning yana bir muhim jihati giyohvandlikning jamoat salomatligiga ta'siri. Psixoaktiv moddalar insonning markaziy asab tizimi, yurak-qon tomir tizimi, ruhiy holati va reproduktiv salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Narkotik vositalarni inyeksiya orqali qabul qilish holatlari esa VICH-infeksiyasi, virusli gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalish xavfini oshiradi. Natijada davlatning sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yuki ortib, davolash va rehabilitatsiya ishlariga katta mablag'lar sarflanishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda sintetik giyohvandlik moddalarining keng tarqalishi mazkur muammoning yanada murakkablashuviga olib kelmoqda. An'anaviy narkotik vositalardan farqli ravishda, sintetik moddalarning tarkibi tez-tez o'zgartirilishi ularni aniqlash va huquqiy nazorat qilishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va elektron to'lov tizimlaridan foydalanish orqali giyohvandlik moddalari savdosining yangi mexanizmlari shakllanmoqda. Bu holat huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Giyohvandlikning zamonaviy ko'lam va uning ko'p qirrali salbiy oqibatlari mazkur muammoni faqat tibbiy yondashuv orqali hal etish mumkin emasligini ko'rsatadi. Unga qarshi kurashishda huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik chora-tadbirlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish talab etiladi. Ayniqsa, aholi, xususan, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, giyohvandlikning oqibatlari haqida huquqiy va tibbiy bilimlarni oshirish hamda xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzilli profilaktik ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zaharvandlikning o'ziga xos xususiyatlari va xavf omillarini tadqiq etish uning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va tashkiliy omillarni aniqlash, shuningdek mazkur illatning oldini olish va tarqalishini cheklashga qaratilgan ilmiy asoslangan profilaktik yondashuvlarni shakllantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda kimyo va farmatsevtika sanoati mahsulotlarining keng ommalashuvi zaharvandlik muammosining dolzarbligini yanada oshirmoqda. zaharvandlik giyohvandlikning o'ziga xos shakli bo'lib, u giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilmagan, ammo insonning ruhiy va jismoniy

holatiga ta'sir ko'rsatuvchi kimyoviy moddalarni suiiste'mol qilish bilan tavsiflanadi. Uning asosiy obyektlarini turli ingalyantlar (yelim, benzin, atseton, erituvchilar), maishiy kimyoviy mahsulotlar, retseptor dori vositalari, trankvilizatorlar, sedativ va uyqu dorilari tashkil etadi.

Zaharvandlikning asosiy xususiyati shundaki, mazkur vositalarning katta qismi erkin muomalada bo'lib, ularni xarid qilish uchun maxsus jinoiy aloqalar yoki katta moliyaviy mablag' talab etilmaydi. Shu bois ushbu illat, birinchi navbatda, o'smirlar va yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ingalyantlardan birinchi marta foydalanish holatlarining katta qismi 12–17 yosh oralig'ida qayd etiladi. Ayrinchi mamlakatlarda maktab yoshidagi o'quvchilarning 5–10 foizi hayotida kamida bir marta ingalyant moddalarni iste'mol qilganligini bildirgan.

Zaharvandlikning ijtimoiy xavfliligi uning tez shakllanuvchi qaramlik xususiyati bilan ham izohlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, organik erituvchilar va boshqa ingalyantlarni muntazam iste'mol qilish natijasida insonning markaziy asab tizimida qaytarilmas o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, xotiraning pasayishi, diqqatning susayishi, fikrlash qobiliyatining zaiflashishi, emotsional beqarorlik va agressiv xulq-atvor holatlari kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlarda zaharvandlikga moyil shaxslarda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli mazkur muammoga duch kelmagan tengdoshlariga nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etilgan [6].

Bundan tashqari, zaharvandlik ko'p hollarda og'ir giyohvandlikka olib boruvchi dastlabki bosqich sifatida baholanadi. Xalqaro tadqiqotlar ayrim yoshlar psixoaktiv moddalar bilan tanishuvni aynan ingalyantlar yoki dori vositalarini suiiste'mol qilishdan boshlab, keyinchalik kuchli narkotik vositalarga o'tishini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan zaharvandlikni erta profilaktika qilish yoshlarni giyohvandlikka jalb etilishining oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davolash va rehabilitatsiya tizimidagi mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish orqali ushbu sohaning amaldagi holatiga ilmiy asoslangan baho beriladi, shuningdek, tizimdagi tashkiliy, huquqiy va amaliy kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar shakllantiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq kasallikka chalingan 64 million nafar shaxsning katta qismi zarur tibbiy yordamdan foydalana olmayapti. Bu holat giyohvandlikning og'ir shakllariga o'tish, kasalliklarning asoratlari kuchayishi va qayta jinoyatchilik holatlarining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Ayollar orasida vaziyat yanada murakkab Mutaxassislar bu holatni ijtimoiy stigma, iqtisodiy qaramlik, oilaviy mas'uliyat va ayollarga moslashtirilgan rehabilitatsiya dasturlarining yetarli emasligi bilan izohlaydilar.

Shuningdek, rehabilitatsiya jarayonlarining samaradorligi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ko'plab davlatlarda davolanishdan keyin ijtimoiy moslashuv va qayta tiklanish dasturlarining yetarli emasligi natijasida qayta qaramlik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashishda faqat tibbiy emas, balki psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordamni ham qamrab olgan kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida yuqoridagi tahlillar giyohvandlik va zaharvandlik globallashuv sharoitida insoniyat oldida turgan eng murakkab ijtimoiy, huquqiy va tibbiy muammolardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur illatlarning keng tarqalishi aholi salomatligiga, jamoat xavfsizligiga, demografik jarayonlarga va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zaharvandlikning yoshlar orasida keng tarqalayotganligi va uning og'ir giyohvandlikka olib keluvchi omil sifatida namoyon bo'layotganligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu munosabat bilan profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, psixoaktiv moddalarning zararli oqibatlari haqida aholining huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish, xavf guruhiga mansub shaxslar bilan manzilli ishlash hamda narkologik yordam va rehabilitatsiya xizmatlari qamrovini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashishning samaradorligi davlat organlari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Muxitdinov F.M. Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 145–148.
2. ВОЗ: употребление алкоголя и наркотиков приводит к 3,2 миллиона смертей в год, в основном среди мужчин. / <https://www.ungeneva.org/ru/news-media/news/2024/06/94747/voz-upotreblenie-alkogolya-i-narkotikov-privodit-k-32-milliona>.
3. Число людей, употребляющих наркотики, выросло на 20 процентов за 10 лет. / <https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453676>.
4. Захидова Г.А., Пикирения У.И., Сюняков Т.С., Прилуцкая М.В. Motives for New Psychoactive Substances Consumption among Young Adults in Uzbekistan: A Qualitative Study Protocol // Consortium Psychiatricum. – 2025. – Vol. 6. – No. 1. – P. 37–46.
5. Goldstein P.J. The Drugs/Violence Nexus: A Tripartite Conceptual Framework // Journal of Drug Issues. – 1985. – Vol. 15. – No. 4. – P. 493–506; United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2025. – Vienna: UNODC, 2025. – P. 1–25.
6. Akramov X., Abduazimova Z. O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar orasida giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalish muammolarining psixologik-sotsiologik hamda axloqiy masalalari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2024. – №1.6. – B. 18–23.



ODAM SAVDOSI – GLOBAL MUAMMO SIFATIDA: SABABLARI VA OQIBATLARI



Achilov Alisher Temirovich

Tashkent International University, "Huquqiy fanlar" kafedrası professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Ташкентский международный университет, и.о. профессора кафедры «Правоведение», доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Tashkent International University, the Department of Jurisprudence, Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences



Po'latxojiakbarov Ramazon Rustam og'li

Tashkent International University, Yurisprudensiya fakulteti 3-kurs talabasi

Ташкентский международный университет, студент 3-го курса юридического факультета

Tashkent International University, 3rd year student of the Faculty of Jurisprudence

Annotatsiya. Ushbu maqolada odam savdosining global muammo sifatidagi mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bu transmilliy jinoyatga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmlari va chora-tadbirlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: odam savdosi, global muammo, jinoyatchilik, migratsiya, huquqiy himoya, ekspluatatsiya, transmilliy xavf.

HUMAN TRAFFICKING AS A GLOBAL PROBLEM: CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. This article analyzes the essence of human trafficking as a global problem, its root causes, and its negative consequences for society. International legal mechanisms and effective measures to combat this transnational crime are also deeply considered.

Keywords: human trafficking, global problem, crime, migration, legal protection, exploitation, transnational threat.

Odam savdosi zamonaviy dunyoning eng o'tkir va murakkab global muammolaridan biri bo'lib, u inson huquqlari va erkinliklariga qaratilgan og'ir jinoyat hisoblanadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, davlatlararo chegaralarning ochiqligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odam savdosi bilan shug'ullanuvchi transmilliy uyushgan jinoiy guruhlarining faoliyat doirasini yanada kengayishiga olib keldi. Bu illat nafaqat alohida shaxslarning hayoti va sog'lig'iga putur yetkazadi, balki davlatlarning